

O‘SMIRLARDA ISHONCH HISSI VA UNING IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

**Saidova Yulduzxon Akbarjon qizi
Farg‘ona davlat universiteti
Psixologiya kafedrrasi o‘qituvchisi**

Mustaqillik yillarida eski, o‘zini tarix oldida oqlamagan mafkuradan voz kechildi, yangi mustaqillik g‘oyasi, uning asosiy tamoyillari, yoshlarni ma’rifatli qilish borasidagi vazifalar Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev asarlarida muhtasar, aniq bayon etilgan. Ular asosida mamlakatimizda yangi «Ta’lim to‘g‘risidagi Qonun» va «Kadrlar tayyorlashning milliy dasturi» qabul qilindi. Ular yoshlarning eng ilg‘or ilm-fan yutuqlaridan boxabar qilish, buyuk allomalar merosini chuqur va teran o‘rganish, zamonaviy texnologiyalar asosida ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil qilish, yoshlarni ma’rifatli qilishning barcha shart-sharoitlarini yaratishni nazarda tutadi. Bu say’i-harakatlar ma’naviyat borasidagi islohotlar, o‘zbek madaniyati, san’ati, adabiyotini rivojlantirish ishlari, tariximizni tiklash borasida amalga oshirilayotgan olamshumul ishlar tabiiy, yoshlarimizda yangicha dunyoqarashning shakllanishiga asos bo‘ladi.

Mustaqillikdan ruhlangan, uning moddiy va ma’naviy ne‘matlaridan bahramand bo‘layotgan yoshlar o‘tgan qisqa vaqt mobaynida uning qadriyatlari, har bir shaxsga yaratilayotgan cheksiz imkoniyatlari, ilm va bilim borasidagi shart-sharoitlarni anglab, o‘zlari ongli ravishda ana shu tuzumga sadoqat va uni sevish, ardoqlash va himoya qilishga tayyorlik falsafasini shakllantirmoqdalar. Yangi mafkura mustaqillik va milliy qadriyatlar g‘oyasi ta’sirida shakllanmoqda va bu tabiiy, birinchi navbatda yoshlar dunyoqarashini o‘zgartiruvchi muhim shartdir.

Shaxsga taalluqli bo‘lgan fazilatlaridan eng muhimi shuki, u shu tashqi, ijtimoiy ta’sirlarni o‘z ongi va idroki bilan qabul qilib (ob’ektni), so‘ngra shu ta’sirlarning sub’ekti sifatida faoliyat ko‘rsatadi. Oddiy qilib aytganda, inson bolasi ilk yoshlikdanoq «mening hayotim», «bizning dunyo» degan ijtimoiy muhitga tushadi. Bu muhit o‘sha biz bilgan va har kuni his qiladigan siyosat, xuquq, axloq olamidir. Bu muhit-kelishuvlar, tortishuvlar, hamkorliklar, an’analar, udumlar, turli xil tillar olami bo‘lib, undagi ko‘plab qoidalarga ko‘pchilik mutloq qo‘shiladi, ba’zilar qisman qo‘shiladi. Bu shunday qoidalar va normalar olamiki, ularga bo‘ysunmaslik jamiyat tomonidan qoralanadi, ta’qiqlanadi. Shulardan kelib chiqadigan xulosa shuki, shaxs jamiyatga nisbatan barcha tartib-qoidalarni qabul kiluvchi sub’ekt bo‘lsa, jamiyat-ijtimoiy intizom va tartibning, madaniyatning mufassal ko‘rinishidir.

Shaxs ijtimoiy hulqiga turli tashqi kuchlar ta’sir qiladi: siyosiy, mafkuraviy, iqtisodiy, ma’naviy, axloqiy va boshqalar. Bu ta’sirotlar mohiyatan aslida jamiyat a’zolari bo‘lmish shaxslar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning ayrim alohida yo‘nalishlarini belgilab beradi.

Shunday qilib, shaxs turli ijtimoiy munosabatlar tizimi ta’sirida bo‘ladi va ko‘plab ijtimoiy institutlar (oilalar, mahalla, o‘quv maskanlari, mehnat jamoalari, norasmiy tashkilotlar, din, san’at, madaniyat va boshq.) bilan bog‘liq bo‘ladi. Masalan, shaxsdagi turli g‘oyalar, fikrlar va mafkura mafkuraviy munosabatlar tizimi ta’sirida shakllanib, ular bevosita oilalar, bog‘cha, maktab va boshqa o‘quv va tarbiya muassasalari orqali ongga singdiriladi. Agar bu ta’sir uning e’tiqodi darajasida ko‘tarilsa, va unda yana yangidan-yangi fikrlar va g‘oyalarning paydo bo‘lishi va o‘shishiga olib kelsa, shaxs taraqqiyoti jarayonida shunday faoliyat sohasini tanlaydiki, u o‘z qobiliyatlari, malaka va ko‘nikmalarini rivojlantira borib, ziyoli sifatida yo‘ o‘qituvchi, yoki vrach, yoki olim, kashfiyotchi, muhandis bo‘lib, elu-yurtiga xizmat qiladi.

“Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim, fan, innovatsiya va ilmiy tadqiqotlarning salmoqli natijalari: muammo va yechimlar” mavzusida Respublika ilmiy anjuman to’plam materiallari 2024-yil 19-aprel kun.

Iqtisodiy munosabatlar ham shaxs ongi va uning insoniy xususiyatlari shakllanishida katta rol o’ynaydi. Masalan, bosqichma-bosqich bozor munosabatlariga o’tayotgan O’zbekiston sharoitini oladigan bo’lsak, yangicha iqtisodiy o’zgarishlar, bozor, raqobat, legalizatsiya, liberalizatsiya, ya’ni erkinlashtirish va shunga o’xshash yangiliklar har bir shaxsning moddiy boyliklar va ularga bo’lgan shaxsiy munosabatlarida aks etib, uning iqtisodiy ongi, tafakkuri va mustakil fikrini belgilaydi.

Mustaqil fikr-insonning narsa va hodisalar, jamiyatda ro’y berayotgan hodisalarning mohiyati xususida o’z qarashlari bo’lishini taqozo etadi, uning bilish va anglash imkoniyatlari chegarasini kengaytiradi.

Hozirgi buyuk islohotlar amalga oshirilayotgan O’zbekiston sharoitida mustaqil fikrlovchi yoshlarning bo’lishi davr taqozosi bo’lib, shaxsiy dunyoqarashga ega bo’lgan insonlarga jamiyat taraqqiyotini ta’minlovchi ko’plab loyihalarni ishlab chiqishga kodir bo’ladilar. Prezidentimiz Sh.Mirziyoevning siyosatining bosh omillaridan biri ham teran fikrlovchi, o’z mustaqil dunyoqarashiga ega bo’lgan iqtidorli shaxslarni kamol toptirish va tarbiyalashdir degan fikrlari maqsadimizning isbotidir. Chunki o’zgaralar fikriga qaram bo’lish, turli biddiyatlar va yot mafkuraga ergashish psixologiyasi jamiyat ma’naviyatini tanazzulga olib kelishi shubxasiz. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, mustaqil fikrlash bir qarashda shaxsning individual xususiyati bo’lsa-da, bu xususiyat jamiyatda, insonlar o’rtasidagi munosabatlar muhiti yaxshi bo’lganda rivojlanadi. Ya’ni, agar kichik yoshidanoq bolaning ko’plab beradigan «Nega?» «Nima uchun?» kabilidagi savollariga o’rinli javoblarning berilishi, undagi shaxsiy fikrning rag’batlantirilishi, o’qituvchi tomonidan u yoki bu muammo bo’yicha har bir o’quvchi fikrining so’ralishi va o’z vaqtida javoblarning ma’qullanishi kabi omillar musatkil fikrlashning shart-sharoitlaridan hisoblanadi. Demak, mustaqil fikrlash ijtimoiy muhitga bog’liq qobiliyat ekan, guruh sharoitida tashkil etiladigan to’g’ri muloqot va samimiy muhit, bahs va tortishuvlarning omilkorona yo’lga qo’yilishi bunda katta tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi.

“Ishonch” tushunchasi odamlar o’rtasidagi kundalik munosabatlar amaliyotini aks ettirishning oddiy holatidir. Shu munosabat bilan ijtimoiy-psixologik va psixologik tadqiqotlar asosida turli muammolarni o’rganishda psixologlar ko’pincha ishonch fenomeniga murojaat qilib, uning odamlar o’rtasidagi ijobiy munosabatlarni o’rnatish uchun juda muhimligini ta’kidlaydilar. Biroq ishonchni mustaqil ijtimoiy-psixologik hodisa sifatida o’rganishga bag’ishlangan ishlar rus psixologiyasida hali mavjud emas.

Shaxs ontogenezi jarayonida qarama-qarshilikning rivojlanishini kuztish ushbu sohadagi eng nufuzli tadqiqotchilardan biri V.N.Kulikov menba, ko’pincha o’qituvchiga bo’lgan ishonch u ilhomlantirgan narsaga ishonchni ham keltirib chiqarishi mumkin, shuningdek, ishonchsizlik –ishonchsizlikni ham keltirib chiqarishi mumkin degan taklifni bergan. Tahlil qilingan barcha tadqiqotlarda taklif va qarshi takliflarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini o’rganishda “ishonch” atamasi ko’pincha “taklif” tushunchasining sinonimi sifatida qo’llaniladi.

B.F. Porshnev tomonidan taklif qilingan “biz” amjamiyatini tushinishning asosiy qoidalariga ko’ra, boshqalarning fenomenini o’rganib, “biz” hamjamiyatini muloqatga maksimal ishonch bilan maksimal psixologik yaqinlikni anglatadi, deb hisoblashadi. “Biz”ni ichki aloqaga tenglashtirilishi mumkin ya’ni “o’zi bilan yolg’iz muloqot qilishdir”, deb ishonchga ta’rif bergan.

Shunday qilib ishonch ko’plab ijtimoiy-psixologik hodisalar mavjudligining fon sharti va ishonchli aloqa bilan bog’liq nisbatan mustaqil ijtimoiy-psixologik hodisa sifatida qaraldi. Maxfiy aloqani tahlil qilishga bag’ishlangan tadqiqot ushbu hodisaga quyidagi ta’rifni berdi: “Maxfiy aloqa –bu shunday muloqotki, bir kishi boshqa odamlar bilan muloqot

“Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim, fan, innovatsiya va ilmiy tadqiqotlarning salmoqli natijalari: muammo va yechimlar” mavzusida Respublika ilmiy anjuman to’plam materiallari 2024-yil 19-aprel kun.

qilish jarayonida ularga har qanday “maxfiy ma’lumot”, fikrlar bo‘lib, uning shaxsiyati va ichki dunyosining ma’lum qirralarini ochib beradigan his-tuyg‘ulardir”.

Shunday qilib, «bugungi oliy o‘quv yurtlarning talabasi ertangi kunning mutaxassisi va ziyoli inson sifatida o‘z kelayotgan avlod ruhi va ongiga adolat, Vatan bilan faxrlanish, ertangi kunga ishonch, milliy g‘urur, iftixor tuyg‘ularini singdirishda shaxsiy o‘rnak namunasi bilan o‘z hissasini qo‘shar ekan, demak u demokratik munosabat tizimiga tayyor bo‘lishi shart. Bu esa bugungi kunda ma’naviyat sohasidagi eng dolzarb masaladir».

Shunday qilib, bugungi o‘z kelayotgan yoshlar ongiga kelajakka ishonch hissi va ertangi kunga ishonch, milliy g‘urur, milliy iftixor tuyg‘ularini singdirish biz pedagog-mutaxassislarining vazifasidir.

Foydalanilgan ro‘yxati.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2017 yil 20 apreldagi PQ-2909-sonli Qarori.
2. Mirziyoev SH.M. «Erkin va farovon demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz».- T.: «O‘zbekiston»-2016 yil.
3. Mirziyoev SH.M. «Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz».- T.: «O‘zbekiston»-2017 yil.
4. Mirziyoev SH.M. «Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak».- T.: «O‘zbekiston»-2017 yil.
5. Akmalovna A. F., Xayotjonovna D. N. Qizlarni oilaga tayyolashda etnik stereotiplar va psixologik ustanovkalarini o‘rganish //so ‘ngi ilmiy tadqiqotlar nazariyasi. – 2023. – T. 6. – №. 12. – C. 282-291.
6. Akmalovna, Akramova Feruza, and Djuxonova Noxida Xayotjonovna. "Qizlarni oilaga tayyolashda etnik stereotiplar va psixologik ustanovkalarini o‘rganish." *So ‘ngi ilmiy tadqiqotlar nazariyasi* 6.12 (2023): 282-291.
7. Akmalovna, A. F., & Xayotjonovna, D. N. (2023). Qizlarni oilaga tayyolashda etnik stereotiplar va psixologik ustanovkalarini o‘rganish. *So ‘ngi ilmiy tadqiqotlar nazariyasi*, 6(12), 282-291.
8. Dzhukhonova N. Studying ethnic stereotypes and psychological standards in preparing girls for a family //Science and innovation. – 2023. – T. 2. – №. B5. – C. 13-16.